

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYON O'QITISHNING PEDAGOGIK
VA PSIXOLOGIK OMILLARI**

Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi

"Boshlang'ich ta'lism metodikasi" kafedrasи o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Abdullayeva Dildora Ilhomjon qizi

Boshlang'ich ta'lism fakulteti talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fanlararo integratsiya, boshlang'ich sinflarda integratsion ta'lismni yo'lga qo'yish va uning samaradorligi haqida yoritilgan bo'lib, integratsion darsning boshlang'ich sinflarda o'zlashtirishi va uning umumiy xususiyatlari atroflicha bayon etiladi.

Kalit so'zlar: integratsiya, fanlararo integratsiya, ta'lism samaradorligi, boshlang'ich ta'lism, integratsion darslar, tabiiy fan, matematika.

Abstract: In this article discussed that, importance of interdisciplinary integration, some of the requirements and conditions for the introduction of integrated education in the primary grades, and described in detail the general features of the integrated course.

Keywords: integration, interdisciplinary integration, educational effectiveness, primary education, integration lessons, maths.

“...O'quvchi fandan fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi. “Har bir yangi narsada o'ziga yarasha lazzat bor” deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi”.

Abu Rayhon Beruniy

KIRISH

So`nggi yillarda ta'lism-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatining ilg`or yutuqlarini jamlagan, o`tmish ajdodlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lism-tarbiya berish uslublarini shakllartirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nан barkamol avlodga ta'lism-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mamlakatimizda ta'lism sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o'quv soatlari keskin qisqartirildi, o'quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Hozirgi vaqtida boshlang'ich maktablarda o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilish jarayonida fanlararo integratsiya muammosiga yanada bir bora katta e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy dunyoda integratsiya tushunchasi juda keng qo'llaniladi va turli jihatdan ko'rib

chiqilmoqda. Lotinchadan so'zma- so'z tarjima qilganda “ integratio ” - tiklash,to'ldirish, “ ratsiya ” to'liq degan ma'noni bildiradi. Binobarin, integratsiya “ bir butunga , har qanday elementlarning birligiga birlashish, qandaydir birlikni tiklash ”demakdir. Integratsiya –bu differentsiatsiya jarayonlari bilan birga yuzaga keladigan fanlarning yaqinlashuvi va aloqadorlik jarayoni va ta'limning yangi bosqichida subyektlararo aloqalarni amalga oshirishning yangi shakli bo'lib, yangi butun blok bilim qotishmasini yaratishga hissa qo'shadi.Integratsiya tushunchasi XVIII asrda Spenser tomonidan izohlangan edi. Biz integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab,uni fanlararo aloqa hamda ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik. Mavlonova Klaraxon Mahmudovna, Alisher Navoiy nomidagi ToshDo'Tau Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasи kata o'qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori shunday yozadi:“Integratsiya tushunchasi fanda avvaldan mavjud bo'lgan turli qism va elementlarning birlashgan holda faoliyat yuritish jarayonini ifoda qiladi”. Bir tomonlama integratsiyalanishda o'quv fanidagi maqsadga muvofiq kelgan holatlardan andaza olinadi, ikkinchisida o'zaro ta'sir orqali bir-birining ta'lim mazmunini unifikatsiya qilish, boyitish ishlari ro'yogga chiqariladi. Biri bilan (turli fanlar) bir tomonlama, ikkinchisi, aniqrog'i, so'z san'ati adabiyot o'quv fani bilangina ikki tomonlama integratsiyalash yuzaga keladi. O'quvchilarni badiiy asarning biror til xususiyati bilan tanishtirish davrini ona tili darslarida nutqiy ehtiyoj asosida berilgan grammatik tushunchalarini o'rganish davriga mos holda kiritish lozim. Shunda ona tili darslarida adabiy nazariy tushunchalarga murojaat etish imkoniyatlari ortadi. O'quv fanlari bilan bog'lanishni bu tarzda amalga oshirishni tashqi integratsiya deb atash mumkin.So'nggi o'n yillar ichida ta'lim falsafasi shunday ilmiy yo'nalishga aylandiki, u insonning ta'lim olish jarayonida yaxlit intellektual rivojlanishi borasidagi savolga javob taklif etmoqda. Ta'lim olayotgan yosh o'quvchining rivojlanish sharoitidagi qarama- qarshiliklarni amaliyotdagi pedagoglar aniqlaydi.Yaqinda Samarqand davlat universiteti fakultetlararo pedagogika kafedrasи professori Kibriyo Hasanovaning “Boshlangich ta'lim pedagogikasida innovatsiya va integratsiya” nomli o'quv qo'llanmasi nashr etildi. Mazkur qo'llanma pedagogika yo'nalishida tahsil oladigan bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda zamonaviy ta'lim jarayonlarini tashkil etish bo'yicha kerakli tavsiya va ma'lumotlar berilgan.Ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish muhim omildir. Shu sababli zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or o'qituvchilar tayyorlashda ushbu qo'llanmaning ahamiyati katta. Shuningdek, kitobda innovatsion texnologiyalarning shakllanish tarixi, pedagogik integratsiyaning ilmiy asoslari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, pedagogik jarayonni shakllantirish va samarali boshqarish texnologiyasi hamda rivojlanayotgan ta'limning integratsiyasi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi va ta'lim san'ati texnologiyasini ilmiy-amaliy nuqtai nazardan vizualizatsiya qilish masalalarida ham atroflicha fikr bildirilgan. Bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha bilim va

ko‘nikmalarga ega bo‘lgan pedagog darajasida tayyorlash, ularni o‘ziga xos malakaga ega bo‘lishga yo‘naltirish va bu borada zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish pedagogik faoliyatni amaliyatga joriy etishda yordam beradi.O‘qituvchi ijodiy qobiliyatlarining manbai pedagogik tajribadir. Uning ilg‘or tajriba konsepsiyasida o‘z vazifasiga ijodiy munosabati o‘quvchilarni tarbiyalashda yangi samarali yo‘l va vositalarni izlash va ulardan foydalanishida namoyon bo‘ladi. O‘z sohasining yetuk o‘qituvchisi nafaqat bolalarga ta’lim-tarbiya berish bilan shug‘ullanishi, balki ilg‘or o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganishi muhim hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar orqali ta’lim jarayoniga yangi sifat o‘zgarishlari kiritiladi, natijada o‘quvchining berilgan mavzuni tushunib olishi va eslab qolishi osonlashadi. Ilg‘or pedagogik tajriba shunchaki mehnatning bir ko‘rinishi emas, balki kezi kelganda o‘qituvchining uslubiga aylanib, u orqali o‘qituvchi tarbiya va ta’lim jarayonida yuksak natijalarga erishishi mumkin. Ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik jarayon samaradorligining muhim shartidir. Aynan shuning uchun ham bo‘lajak pedagoglar pedagogik texnologiya va ta’lim texnologiyasining ilmiy asoslaridan foydalana olishlari zarur. Shu bilan o‘qituvchilar hozirgi kunda dars jarayonida integratsion yondoshgan holda dasr o‘tishsa, mazvuni har tomonlama yangicha uslubda o‘quvchilarga bilim bera oladi. Bu borada yurtboshimizni ham fikrlari quyida berilgan.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi?

YANGI FIKR, YANGI G‘OYAGA, INNOVATSIYAGA TAYANGAN DAVLAT YUTADI”

Shavkat Mirziyoyev

XULOSA: Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta’lim maqsadlarini amalgalashishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o‘quvchining vaqt, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo‘riqishlarning oldi olinadi, ta’lim samaradorligi oshadi. O‘quvchilar zarur ko‘nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o‘quv predmetlari mazmunini uyg‘unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
2. Asaulyuk E.P. Integrirovannyy podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivnye nauki. 2011. №10 str.222-226

3. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o`quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzlucksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b
<https://lib.espi.uz/index.php?newsid=7951>

4. Usmonova Q.S. Boshlangish ta`limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b

5. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s

6. Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s.

7. Quvondiqov, S. S., Xujomov, B. X., Tursoatov, A., Sangirov, N. (2023). The use of interactive teaching methods in sports Uzbekistan. International Sports Journal, 7(37), 321-326.